

Tarixi

Traktorlar va avtomobillar kafedrası



mudiri, dotsent v.b.

Amanov Mansur Ochilovich

Tel.: (998 71) 237 2534

Email: m.amonov@tiame.uz

Traktorlar va avtomobillar kafedrası Toshkent irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti tarkibida ish boshlagan dastlabki kafedralardan biri, kafedra 1934 yilda tashkil etilgan. Dastlabki yillarda kafedra tarkibida 4 ta o'quv laboratoriyasi faoliyat ko'rsatgan. Keyinchalik Traktor va avtomobillar kafedrası negizida Ichki yonuv dvigatellari va Issiqlik texnikasi kafedralari tashkil etilgan. 2004 yilda Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti Toshkent davlat agrar universitetiga o'tkazilgandan keyin kafedra a'zolari TDAUning Qishloq xo'jalik mashinalari, foydalanish va ta'mirlash va Toshkent irrigasiya va meliorasiya institutining Gidromeliorasiya ishlarini mexanizatsiyalash kafedralari tarkibiga qo'shilgan. 2017 yil sentyabrdan Traktorlar va avtomobillar kafedrası yangitdan qayta tashkil qilindi. Bugungi kunda kafedrada Traktor va avtomobillar, Ichki yonuv dvigatellari, Issiqlik texnikasi va qishloq xo'jaligida issiqlikdan foydalanish, Termodinamika va issiqlik uzatish asoslari, Yonilg'i moylash materiallari, Yo'l harakati qoidalari va xavfsizlik asoslari kabi fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlari olib boriladi. Turli muddatlarda Ichki yonuv dvigatellari, Issiqlik texnikasi kafedralariga D.X.Xakimov, A.I.Kyeldiev, X.M.Babaev, G.G.Umarov, Traktor va avtomobillar kafedrasiga A.N.Ninov, V.P.Bogdankin, N.V.Sablikov, P.A.Abduraxmonov, A.A.Karimov, X.X.Xayrullaev, A.I.Kamilov, O.U.Salimov, I.M.Marupov, Z.S.Iskandarovlar raxbarlik qilganlar, hozirgi kunda kafedraga M.O.Amonov raxbarlik qilmoqda.

Bugungi kunda kafedrada professor G.G.Umarov, professor v.b. Imomov Sh.J., dotsentlar A.I.Kamilov, I.M.Marupov, N.T.Umirov, I.R.Nuritov, U.T.Kuziyev, N.A.Xoliqova, katta o'qituvchilar B.K.Tulaganov, Sh.X.Abduraxmonov, K.E.Usmanov assistentlar E.M.G'aniboyeva, R.F.Xudoykulov, A.A.Bozorboyev stajer-o'qituvchi M.O.Xolbo'tayevlar faoliyat ko'rsatishmoqda.

Kafedraning Ichki yonuv dvigatellari, Traktor va avtomobillar shassisi tuzilishi va ishlashini, Yo'l harakati qoidalari va xavfsizlik asoslarini o'rgatish uchun jihozlangan o'quv-amaliy mashg'ulot xonalari institutning V binosida joylashgan. Traktor va avtomobillar, Avtotraktor dvigatellariva yonilg'i nasoslarini sinash, Issiqlik texnikasi va Yonilg'i moylash matyeriiallari laboratoriyalari E binoda joylashtirilgan. Laboratoriyada traktorni tortish sinovi uchun jihozlangan T-16M traktori, dvigatel sinovini o'tkazish uchun jixozlangan D-21, 4VT-3.9 dvigatyellari mavjud. Shuningdyek bu yerda xarakatlanuvchi maketlar va qirqimli modellar ham mavjud.

Institut o'quv tajriba xo'jaligidagi talablar darajasida jixozlangan o'quv poligonda talabalarga traktorlar va qishloq xo'jaligi mashinalarini boshqarish bo'yicha o'quv amaliyoti o'tkaziladi. Amaliyot davrida TS-130,

MTZ-80X, TTZ-80.11 traktorlaridan foydalaniladi.
